

**VAZIRLIK VA IDORALARDAGI YOSH INNOVATOR YOSHLAR LOYIHALARINI KO'RIB
CHIQUISHNING OCHIQ KO'RGAZMALI, ONLAYN, OFLAYN VA TELEVIDENIYA ORQALI
SOHALAR KESIMIDA XAR 3 OYDA BIR MAROTABA O'TKAZISHNI TASHKIL QILISH**

Р.Н.Эшанқулов

*“Ўзбекистон темир йўллари” АЖ етакчилар
Кенгаши раиси ўринбосари*

Annotasiya: *Vazirlik va idoralarda innovasion ishlanmalarning sonini ko'paytirish orqali Mamlakatimizdagi asosiy ishlab chiqaruvchi bo'lgan sanoat korxonalaridagi barcha ishlara innovasion loyihalarni joriy qilish, sohani raqamklashtirishda aynan ichki yosh xodimlarning ro'lini ko'paytirish. Ushbu maqola davomida “O'zbekiston temir yo'llari “ AJ tizimidagi temiryo'lchi yoshlar tomonidan sohani raqamklashtirishdagi amalga oshirayotgan ishlardan keng foydalanildi.*

Kalit So'Zlar: *Innovasiya, raqamklashtirish, lokalizasiya, loyihalar, onlayn platforma.*

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ilmiy va innovasion faoliyatni rivojlantirish bo'yicha davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to'g'risida”gi 2021 yil 1 apreldagi PF-6198-sonli Farmoni va “Ilm-fan sohasidagi davlat siyosati va innovasion rivojlantirishdagi davlat boshqaruvini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-5047-sonli qarorida belgilangan vazifalar hamda “O'zbekiston temir yo'llari” aksiyadorlik jamiyati tizimida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish yuzasidan chora-tadbirlar dasturi ijrosini ta'minlash, yoshlarning zamonaviy texnika va texnologiyalarga bo'lgan qiziqishlarini qo'llab-quvvatlash, ularda ijodiy tafakkur va yaratuvchanlik qobiliyatini rivojlantirish maqsadida xar yili temiryo'l tizimida “Innovasion g'oyalar” tanlovi joriy qilinib kelinmoqda.

Temiryo'lchi yoshlar tomonidan taklif qilinayotgan yangi loyihalarning natijasida temir yo'l transportida sohani raqamklashtirish ishlari jadallashmoqda, import o'rnini bosuvchi, maxalliy maxsulotlar soni ortmoqda va bu orqali iqtisodiy samaraga erishilmoqda.

Temiryo'lchi yoshlar tomonidan yo'lga qo'yilgan yangi loyihalar quyidagilardir; “Rels issiqligini masofadan turib bilib turadigan qurilma va dastur”, Railway observer telegram BOT, “Yo'l o'lchagich shabloning elektron moduli” Teplovozning yangi turdagi harorat o'lchagichi, “D49 dizeli uchun gaz chiqarish kollektorini suv bosimi yordamida tekshirish stendi”, Harakat davrida yuk va yo'lovchi tashuvchi vagonlarning nosozliklarini o'lchash uchun USHB-18 (universalniy shablon Begzod-18), “Kontaksiz priborlarni sinovdan o'tkazish stendi”, Himoyalangan relslarga xizmat ko'rsatish va nazorat qilishga mo'ljallangan onlayn platforma, D50 va K6S310DR dizellarining silindr vtulkalarini markazdan qochma usulda quyish, Yuk vagon sesterna qozonini gidravlik hamda pnevmatik sinovdan o'tkazish jarayonini raqamklashtirish, Vagon depolaridagi ta'mirga kelgan, ta'mirdan chiqqan va depo hududidagi qoldiq nosoz yuk vagonlari to'g'risidagi ma'lumotlar

almashinuvini ko'rsatuvchi onlayn platforma, "Tezkor telegraf", relearning xizmat muddati va ularning ko'riklarini onlayn kuzatib borish dasturi, NRT, NSU DPEP datchiklarini ta'mirlab tekshirish va NSU lar blokirovkalarini ochish stendi, "Elektron raqamli metrologiya", SMART DEPO, Quyosh panellari yordamida issiqlik energiyasi bilan ta'minlovchi dastgox ishlab chiqarish, Vagonlardagi yukni mahalliy sharoitda o'lchash uchun elektron tarozi qurilmasi, "Qurulish ijro xujjatlarini raqamlashtirish", E-Mehnat muxofazasi elektron nazorat loyihasi, E-xodim, E-Tashish — Tashish va bekat ishlari bo'limi veb sayti kabi loyihalarning bugungi kunda amaliyatga joriy qilish ishlari olib borilmoqda va 70% loyihalar ishga tushirilgan.

Qiziqarli tomoni bu loyihalarni boshqa sohalarga xam joriy qilish imkoniyatlari mavjud. Bu loyihalar o'z natijasini berib kelmoqda shu sababli Respublikamizdagi barcha vazirlik va idoralardagi yosh xodimlar o'rtasida keng ko'lamlari xar 3 oyda bir marotaba "Innovation loyihalar xaftaligini" o'tkazib bu orqali boshqa soxalardagi loyihalarni xam ko'rib chiqish imkoniyatlarimizni oshiramiz. Xar bir tizim o'ziga mos keladigan yangi loyilar bilan tanishadi, boshqa vazirlikdagi loyihani o'z tizimiga joriy qilish bo'yicha kelishuvlarga erishadi.

Yosh xodimlarning loyihalari esa amaliyotga joriy qilinishi osonlashsa bu kabi yoshlarning innovasiya borasidagi ishlarini yanada ko'proq va siqatli qilishiga sababchi bo'ladi. Buning uchun eng avvalo Innovasiya vazirligi bu ishlarga bosh bo'lsa barcha vazirlik va idoralar birdek bu kabi loyihalarni amalga oshirish uchun innovator yoshlarga ko'maklashishi bir so'z bilan aytganda ochiq tarza xar oyning birinchi shanba kunlarini INNOVATION LOYIHALAR KUNIni tashkil qilish va shu kunlarda yoshlardan kelayotgan loyixalarni saralab olish tizimini yo'lga qo'yish mumkin.

Xulosa- xulosa qilib shuni aytish mumkunki "O'zbekiston temir yo'llari" aksiyadorlik jamiyati tizimidagi iqtidorli temiryolchi yoshlar tomonidan o'tgan yillar davomida 80 ga yaqin loyihalar taklif qilingan bolsa bugungi kunda 40 ga yaqin loyihalar ishlab chiqarishga joriy qilinish ishlari olib borilmoqda. Bu ishlar natijasida "O'zbekiston temir yo'llari" aksiyadorlik jamiyati import o'rnini bosuvchi maxsulotlarni o'z tarkibidagi sanoat korxonalarida ishlab chiqmoqda. Raqamlashtirish borasidagi ishlarning natijasida esa ko'plab qog'ozbozlik ishlaridan voz kechildi, tezkorlik va shaffoflikka erishilmoqda